



## SHOISLOM SHOMUHAMEDOVNING O'ZBEK ADABIYOTI VA TARJIMACHILIGIGA QO'SHGAN HISSASI

**Turg'unboyeva Shabnam Maqsad qizi**

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Sharq xalqlari tillari va adabiyoti instituti

Janubiy Osiyo tillari va adabiyoti oliy maktabi

1-bosqich talabasi

turgunboyevashabnam87@gmail.com

+998508860740

**Ilmiy rahbar: Kamola Raxmatjonova Abdumutal qizi**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20392835>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 11-may 2026 yil

Ma'qullandi: 15-may 2026 yil

Nashr qilindi: 26-may 2026 yil

#### KEY WORDS

Tarjimon, sharqshunos, o'zbek adabiyoti, tarjimachilik, "Shohnoma", fors-tojik adabiyoti, ilmiy meros, sharq adabiyoti, ma'naviyat.

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada mashhur sharqshunos olim, tarjimon va adabiyotshunos Shoislom Shomuhamedovning o'zbek adabiyoti hamda tarjimachilik rivojiga qo'shgan hissasi haqida so'z yuritiladi. Olimning ilmiy faoliyati, sharq mumtoz adabiyotini o'rganishdagi xizmatlari, ayniqsa, Firdavsiyning "Shohnoma" asarini tarjima qilishdagi mehnati yoritiladi. Shuningdek, uning yosh avlodni ilm-fanga va ma'naviyatga chorlovchi ijodi tahlil qilinadi.*

O'zbek adabiyoti va ilm-fani rivojiga katta hissa qo'shgan olimlar orasida Shoislom Shomuhamedovning alohida o'rni bor. U nafaqat yetuk sharqshunos olim, balki mohir tarjimon, iste'dodli adabiyotshunos va pedagog sifatida ham xalqqa xizmat qilgan. Olim o'z faoliyati davomida Sharq mumtoz adabiyotining nodir namunalarini o'zbek kitobxonlariga yetkazishda katta mehnat qilgan.

Shoislom Mahmudovich Shomuhamedov 1921-yil 16-aprelda Toshkent shahrida tavallud topgan. U yoshligidan ilmga, kitob o'qishga va chet tillarini o'rganishga qiziqqan. Maktab davridayoq Sharq adabiyotiga mehr qo'ygan olim keyinchalik o'z hayotini aynan shu sohaga bag'ishlaydi. 1941–1942-yillarda Ikkinchi jahon urushida qatnashgan. Urushdan qaytgach, ta'limni davom ettirib, O'rta Osiyo davlat universitetining Sharq fakultetida tahsil olgan. Universitetni muvaffaqiyatli tamomlagach, ilmiy faoliyat bilan shug'ullana boshlagan. Shoislom Shomuhamedov uzoq yillar davomida oliy ta'lim muassasalarida faoliyat yuritgan. U o'qituvchi, dotsent, professor, kafedra mudiri, fakultet dekani kabi mas'ul lavozimlarda ishlagan. Olimning asosiy ilmiy yo'nalishi fors-tojik mumtoz adabiyoti, sharq she'riyati va tarjimachilik masalalari bo'lgan. U 1968-yilda filologiya fanlari doktori ilmiy darajasini olgan.

1970-yilda professor unvoni berilgan. Olimning ilmiy faoliyati davlat tomonidan ham yuqori baholangan<sup>1</sup>.

Shoislom Shomammedov o'zbek tarjimachilik maktabining rivojiga katta hissa qo'shgan olimlardan biridir<sup>2</sup>. U Sharq xalqlari adabiyotining eng nodir asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilish ustida samarali ishlagan. Ayniqsa, uning Abulqosim Firdavsiyning mashhur "Shohnoma" asarini tarjima qilishdagi hissasi juda katta ahamiyatga ega<sup>3</sup>.

Ma'lumki, Abulqosim Firdavsiyning "Shohnoma" asari dunyo adabiyotining eng yirik epik asarlaridan biri hisoblanadi. Ushbu asarni tarjima qilish juda katta bilim, mahorat va sabr talab etadi. Shoislom Shomammedov ushbu asarni tarjima qilishda asarning badiiy ruhini, mazmunini va milliy xususiyatlarini saqlab qolishga harakat qilgan. Natijada o'zbek kitobxonlari Sharq adabiyotining bebaho durdonasi bilan yaqindan tanishish imkoniga ega bo'ldilar. Olimning tarjimalari oddiy va ravon tili bilan ajralib turadi. Shu sababli uning tarjimalari kitobxonlar tomonidan iliq kutib olingan.

Shoislom Shomammedov nafaqat fors-tojik adabiyoti, balki boshqa Sharq xalqlari adabiyotidan ham ko'plab asarlarni tarjima qilgan<sup>4</sup>. U Umar Xayyom ruboiylari, klassik she'riyat namunalari va boshqa ko'plab asarlarni o'zbek tiliga o'giran.

Shoislom Shomammedov sermahsul olimlardan biri edi. U 500 dan ortiq ilmiy maqola va ko'plab kitoblar muallifi hisoblanadi. Olimning ilmiy ishlarida insonparvarlik, ma'naviyat, ezgulik va ilmning ahamiyati kabi masalalar muhim o'rin egallaydi. Uning mashhur asarlari quyidagilar: "Shoh kitob va uning muallifi", "Xazinalar jilosi", "Odamiylik inshosi", "Fidoiylar va ruboiylar", "Fors she'riyatining shakllari".

Mazkur asarlarda sharq adabiyotining boy tarixi, buyuk shoir va mutafakkirlarning ijodi hamda insoniy fazilatlar haqida fikr yuritiladi. Shoislom Shomammedov ilmiy tadqiqotlarida Sharq va G'arb madaniyatlari o'rtasidagi aloqalarni ham o'rgangan. U adabiyot insonlarni birlashtiruvchi kuch ekanligini ta'kidlagan. Shoislom Shomammedov nafaqat olim, balki mohir pedagog ham bo'lgan. U ko'plab talabalar va yosh olimlarga ustozlik qilgan. Olim yoshlarga doimo ilm olish, kitob o'qish va ma'naviyatli inson bo'lish kerakligini uqtirgan<sup>5</sup>. Uning asarlarida halollik, vatanparvarlik, insonparvarlik va mehnatsevarlik g'oyalari keng yoritilgan. Shu sababli Shoislom Shomammedov ijodi bugungi yoshlar uchun ham muhim ma'naviy maktab hisoblanadi.

Shoislom Shomammedovning ilm-fan rivojiga qo'shgan hissasi davlat tomonidan munosib baholangan. U "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi" unvoni, "Firdavsiy nomidagi xalqaro mukofot", "El-yurt hurmati" ordeni kabi yuksak mukofotlar bilan taqdirlangan. Bu mukofotlar uning ilm-fan va adabiyot rivojidagi xizmatlari naqadar katta ekanligini ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, Shoislom Shomammedov o'zbek adabiyoti, sharqshunoslik va tarjimachilik rivojiga ulkan hissa qo'shgan buyuk olimdir. U o'zining ilmiy ishlari, tarjimalari va pedagogik faoliyati orqali xalqimiz ma'naviyatining yuksalishiga xizmat qilgan. Olimning boy ilmiy merosi bugungi kunda ham katta ahamiyatga ega. Uning asarlari yosh avlodni ilm-fanga, kitobxonlikka va ma'naviyatga chorlaydi. Shoislom Shomammedov nomi o'zbek ilm-fani va adabiyoti tarixida doimo hurmat bilan tilga olinadi.

<sup>1</sup> Quronov D., Mamajonov Z. *O'zbek adabiyoti tarixi*. -Toshkent: Akademnashr, 2018.

<sup>2</sup> O'zbek milliy ensiklopediyasi. Toshkent, 2005.

<sup>3</sup> Firdavsiy. "Shohnoma". Shoislom Shomammedov tarjimasini. Toshkent, 1975.

<sup>4</sup> Shoislom Shomammedov. "Xazinalar jilosi". Toshkent, 1981.

<sup>5</sup> Sharqshunos olimlar haqida ilmiy maqolalar to'plami. Toshkent, 2010.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Shomammedov Sh. Shoh kitob va uning muallifi. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1992.
2. Shomammedov Sh. Xazinalar jilosi. Toshkent: O'qituvchi nashriyoti, 1981.
3. O'zbek milliy ensiklopediyasi. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2000-2005.
4. Firdavsiy A. Shohnoma Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi nashriyoti, 2018. Tarjimonlar: Shoislom Shomuhamedov va boshqalar.
5. Sharq adabiyoti va tarjimachilikka oid ilmiy maqolalar: B.M. Muhiddinova. "Umar Hayyom ruboiylari tarjimasida Shoislom Shomuhamedov mahorati". Axborotnoma ilmiy jurnali, "Shoislom Shomuhamedov (1921-2007)". Tarix.uz
6. Ziyonet elektron kutubxonasi
7. Qur'onov D., Mamajonov Z. O'zbek adabiyoti tarixi. - Toshkent: Akademnashr, 2018.



INNOVATIVE  
ACADEMY